

XORAZM VILOYATI QISHLOQ TURIZMINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA O`RNI VA AHAMIYATI

Shaakramov Qahramon Qo'chqorovich

Iqtisodiy fanlar nomzodi,

TIQXMMI "Iqtisodiyot" kafedrasи o'qituvchisi

Shonazarova Shohsanam

TIQXMMI, Magistr

Turizm yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya Global iqlim o`zgarishi butun dunyo mamlakatlariga katta ta`sir ko`rsatmoqda. Bunga asosiy sabablaridan biri sifatida insoniyatning tabiatga haddan ziyod aralashuvi ko`rsatiladi. Buning natijasida kelib chiqayotgan muammolar butun dunyoni mamlakatlarining iqtisodiyotiga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda. Shu sababdan, mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini rivojlantirishda boshqa yangi zamonaviy manbalarni shakllantirish lozim. Bu borada hozirgi zamonaviy davrda turizm sohasi iqtisodiyotga katta foyda keltirmoqda. Butunjahon turizm tashkilotining ma'lumotiga ko`ra, dunyoda ishlab chiqarish va servis aylanmasining 10 foizi turizmga to`g`ri kelmoqda. Shuni aytib o'tishimiz lozimki, turizm turlari juda ko`p va har bir davlat o`z sharoitidan kelib chiqqan holda, ya`ni mintaqasi, joylashuvi, o`z iqtisodiy imkoniyatlariga qarab turizm turi shakllanadi va rivojlanadi. Bizning yurtimizning sharoitidan kelib chiqqan holda ko`plab turizm turlari rivojlangan. Bu maqolada aynan, yurtimizning Xorazm viloyatida qishloq turizmini rivojlantirish haqida aytib o`tiladi.

Kalit so'zlar: Turizm, qishloq turizmi, mehmonxona, infratuzilma, daromad, tabiat.

Kirish qismi. O`zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo hududidagi davlatlar orasida katta ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo`lgan va bu borada raqobatbardoshligi yuqori mamlakatlardan hisoblanadi. Yuksak tog` cho'qqilarimiz, uch ming yillik insoniyat tamadduniga guvoh shaharlarimiz, cho'l va yashil vodiylarimiz, ming bir dardga shifo zilol suvlarimizning borligi ushbu sohani rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi. Ekologik turizm mamlakatimiz tabiatining xilma-xil va boy turistik rekreatsiya resurslari salohiyati imkoniyatlaridan

samarali foydalanish, tabiat va madaniyat meroslarini asrash va muhofaza qilish, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha tegishli dasturlar ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ekoturizmning o'mi va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ko'plab qarashlar olg'a surilmoqda. Xalqaro maqomdagagi tashkilot va muassasalaming ma'lumotiga ko'ra, ko'pgina turizm turlari yiliga o'rtacha 5 foizga ortib borayotgan bo'lsa, ekoturizm yiliga o'rtacha 20-30 foizga ko'payib bormoqda. Ko'pgina mutaxassis va tadqiqotchilarining ilmiy tajriba va xulosalari shuni ko'rsatmoqdaki, ekoturizm turizmning yangi va yosh yo'nalishi bo'lishiga qaramasdan, ommalashuvni boshqa turistik yo'nalishlarga nisbatan 2-3 barobar jadal kechmoqda⁷.

Qishloq turizmi bugungi kunda rivojlanib borayotgan turizm turlaridan biri hisoblanib, u Yevropada 1970-yillardan beri ma'lum. U Fransiya, Italiya va Ispaniyada kabi davlatlarda taraqqiy topdi. Ushbu turdag'i dam olish Kipr, Xorvatiya va Polshada keng tarqalgan. Qishloq turizmining paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy sababi o'rtacha daromadga ega bo'lgan shahar aholisining tabiat qo'ynida yolg'iz dam olishga, dehqon oilasi hayoti bilan tanishishga bo'lgan ehtiyojidir. Bunda nafaqat tabiat qo'ynida dam olish, balkiyangi sabzavot va mevalarni, sarhil go'sht va sut mahsulotlarini tatib ko'rish, qishloq xo'jaligi ishlarida bevosita ishtirok etish, shaxsan shudgor yonida turish imkoniyatini ham beradi. Qadimdan keng dalalarda, tabiat qo'ynida dam olish insonlarni o'zgacha zavqlantirib kelgan. Bunda mijozlarning xohishi inobatga olinib, sayyoohlarga sarhil sut, dala hovli uzumzoridan olingan sharob, baliq ovlash, pichanzor va turli xil ko'ngilochar detallar bilan to'ldirilgan yuzlab dala uylari, kulbalar va qal'alarni tanlash imkoniyatini taqdim etuvchi turizm sanoatiga asos solindi. Hozirgi vaqtda Yevropada qishloq turizmi turli hisob-kitoblarga ko'ra, turizm sanoati umumiyligi daromadining 10% dan 20% gacha qismini tashkil qiladi. Qishloq turizmi tabiat majmulariga zarar keltirmaydigan, tabiatni muhofaza qilish va mahalliy aholi farovonligini oshirishga hissa qo'shadigan shahar sharoitidan tashqari turizmning har qanday turini o'z ichiga oladi.

Данилов С. Туризм со вкусом узбекского плова. —Т.. 2013.⁷

Muammoning qo'yilishi. Xorazm viloyati sharoitida turizmning bir qancha turlari rivojlangan. Bular tarixiy turizm, qishloq turizmi, gastronomik turizm, sport turizmi asosiylar hisoblanadi. Hozirgi odamlarning tabiiy hududlarga, yashilikka, shaharning shovqin-suron hayotidan tinchlikka intilishi oqibatida bu viloyatda ham qishloq turizmiga bo`lgan qiziqish ortib bormoqda. Shu sababdan, so`nggi yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish maqsadida yangi qarorlar va farmonlart, maqsadli dasturlar qabul qilinmoqda. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013- yil 20-martdagি PQ 1940-sonli “2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to`g`risida”gi qarorida hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2953 sonli “2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi”da ham viloyatning qishloq hududlarida turizmni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilgan.

Viloyatda qishloq turizmini rivojlantirishda bir qancha qilishi zarur bo`lgan masalalar mavjud. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, bugungi kunda Xorazm viloyatida qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini o`rganish va tadqiq qilish, tadqiqotlar natijasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Qishloq turizmi nafaqat sayyohni qishloq uyida joylashtirish, balki aholi punktlari, dam olish joylari o`rtasidagi yaxshi transport aloqalarini, axborot va xizmatlar ko`rsatish bo`yicha turli xizmatlar ko`rsatishni o`z ichiga oluvchi butun infratuzilmaning ishlashidir. Kichik restoranlar, kafelar va tavernalar, bundan tashqari, har bir mehmon, qishloq turizmida esa turist "mehmon" deb ataladi, doimiy ravishda uy quayligini his qilishi va shaxsiy e'tiborni kuchaytirishi kerak.

Tadqiqot uslubi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, analiz va sintez, SWOT tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish tendensiyalarini tahlil qilish jarayonida ushbu soha so`nggi yillarda ancha taraqqiy qilganliginiko`rishimiz mumkin. Masalan, 2012 yilda viloyat bo`yicha jami sayyohlik tashkilotlari soni 30 tani tashkl qilgan bo`lsa, ularning soni 2016-yilda 72 tani tashkil

qilgan, shundan mehmonxonalar soni 26 tadan 52 taga. Shuningdek, bugungi kunda viloyatda chet el sarmoyasi hisobiga tashkil qilingan “Xeyvak”, “Xorazm malikasi”, “Arqonchi”, “Hayot INN”, “Farovon” kabi 3 va to`rt yulduzli mehmonxonalar faoliyat ko`rsatmoqda.

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
<ul style="list-style-type: none"> • Viloyatda qishloq xojaligi saslohiyatini yuqoriligi ; • Viloyatning boy tabiiy-rekreatsion potensialga ega ekanligi; • Viloyatda dunyo ahamiyatiga molik bo`lgan tarixiy va madaniy yodgorliklarning mayjudligi; • Turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlashda hukumat tomonidan katta e`tibor berilayotganligi 	<ul style="list-style-type: none"> • Qishloq turizmi faoliyatini tartibga soluvchi me`yoriy huquqiy bazaning mayjud emasligi; • Qishloq joylarida turizm infratuzilmasini yetarli emasligi; • Qishloq turizmi bo`yicha aniq turmarshrutlarni ishlab chiqilmaganligi.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
<ul style="list-style-type: none"> • Mahalliy aholining daromadi oshadi; • Qo`shimcha ishchi o`rinlarini yaratiladi; • Qishloq joylarida kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanadi; • Qishloq joylarida kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanadi; • Xorijiy turistlar kelishi soni ortadi 	<ul style="list-style-type: none"> • Turizm bozorida raqobatchilar ko`payadi • Ekologik vaziyatning yomonlashuvi; • Qishloq joylarida turizm servisining past darajada bo`lishi oqibatida turizm bozorining yo`qolishi; • Qishloq joylarida mehnatga yaroqli aholining ko`payishi

Xulosa. Xulosa o`rnida shuni alohida ta`kidlash lozimki, Xorazm viloyatida nafaqat tarixiy-me`moriy, madaniy, ekologik turizmnni rivojlantirish mumkin, bali mintaqaning o`ziga xos xususiyatlari, qishloqlardagi hayot tarzi, qishloq aholising an`anaviy urf-odatlari va qadriyatları qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatlarını tadqiq qilish natijasida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Viloyat qishloq joylarida dam olish maskanlarini tashkil qilish lozim. Xususan, qishloq joylarining ob havosi sof va toza bo`lgan chiroylı maskanlarda rekreatsion obyektlarni tashkil qilish kerak bo`ladi. Shuningdek, viloyatning qishloq joylarida turistlar uchun otda, tuyada sayohatlar uyushtirish, turli xil sport o`yinlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, mevali bog`larg, uzumzorlarga maxsus ekskursiyalarni qilish mumkin;

Viloyatning namunali fermer xo`jaliklarida turli xil o`quv kurslari va seminarlarini tashkil qilish mumkin. Ushbu o`quv kurslar va seminarlar bevosita

fermer xo`jalikning faoliyati bilan bog`liq hisoblanadi. Masalan, fermer xojaliklarida bog`dorchilik, uzumchilik, asalarichilik bo`yicha qisqa muddatli o`quv kurslarini tashkil qilish mumkin;

Xorazm viloyatida qishloq turizmini rivojlantirishning muhim yo`nalishlaridan biri sifatida qishloq joylarida mehmonxonalarini qurish hisoblanadi. Ushbu mehmonxonalar xorijiy sayyoohlarni jalb qilishi uchun jahon standartlariga javob berishi lozim. Ushbu mehmonxonalarini qurishda qishloq arxitekturasini hamda milliylikni o`zida mujassam etishi lozim bo`ladi;

Viloyatning qishloq joylarida qishloq xo`jaligi muzeylari va parklarini tashkil qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «2017–2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi to’g’rida» gi PQ-2953-sonli UzR Prezidenti Qarori.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil 6/2021 (№ 00056) <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
3. Бекжанов Д. Ю. Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning istiqbollari, ustuvor yo`nalishlari / Д. Ю. Бекжанов.

Saytlar:

4. www.lex.uz — Qonunchilik portali materiallari.
5. www.xorazmiy.uz
6. www.uzbekistan.travel.uz